

Siz – Mineralniye Vodi markazidasiz

TOP-20

Nimalar qilish mumkin?

Kavkaz Mineralniye Vodida TOP-5 mashg'ulot

- Sanatoriyalarda sog'liqni tiklash: vannalar, muolajali o'rashlar, dushlar, balchiq bilan davolash
- O'nlab turdagi mineral suvlardan tatib ko'rish
- Sayr qilish va shifobaxsh tog' havosidan nafas olish
- Mashuk yoki Beshtau tog'laridagi terrenkurlar bo'ylab shifobaxsh sayrga chiqish
- Sport bilan shug'ullanish: kvadrotsikllar, paraplanlarda uchish, ot minish, piyoda yurishlar

Pyatigorskda nimalar qilish mumkin?

- Shaharning eng qadimgi bog'i – «Svetnik»ni va Narzan galereyasini tomosha qilish
- Shahar bo'ylab sayr qilish: nafis saroylar, sovet sanatoriyalari, yog'och uylarni ko'rish
- Qoya ichidagi Proval ko'li go'zalligidan bahra olish va Bestyji vannalarida cho'milish
- Lermontov va Akademik galereyalarini tomosha qilish
- Xitoycha va Eolova arfa ayvonchalari oldidagi kuzatuv maydonchalarida turib shahar manzarasidan bahramand bo'lish
- Mashuk tog'iga kanat yo'li orqali chiqish
- Lermontov izlari bo'ylab yurish

Kislovodskda nimalar qilish mumkin?

- Yevropadagi ikkinchi eng katta inson qo'gli bilan yaratilgan bog'ni kashf qilish
- Maloye Sedlo tog'iga kanat yo'li orqali chiqish
- «Shalyapin dachasi» muzeyiga ekskursiya yoki konsertga borish

Yessentukida nimalar qilish mumkin?

- Qadimgi Rim hammomlari uslubida bunyod etilgan Semashko nomidagi Balchiq bilan davolash muassasiga tashrif buyurish
- Kurort bog'iga sayr qilish uchun borish



Boshqa shaharlarda nimalar qilish mumkin?

- «Kichik Shveysariya» va «yashil marvarid» — Jeleznovodskda vaqtni zavqli o'tkazish
- Gum-Bashi dovonida tabiat go'zalligi va tungi yulduzlaridan bahramand bo'lish
- To'liq mavsumli kurortlardan biri: Arxiz, Dombay yoki Elbrusga borish

Nimalarni tatib ko'rish kerak?

- Qo'y, parranda, baliq yoki sabzavotdan kaboblar
- «Pechorin» restoranida barincha yoki gussarcha nonushtalar
- Pyatigorsk muzqaymog'i
- Har xil nachinkali xichinlar
- Osetin piroglari



Nimalar olib kelish kerak?

- Mineral suv ichish uchun burunli krujka (byuvetnitsa)
- Tambukan ko'li balchig'i yoki gili
- Qo'y terisidan buyumlar – shippaklar, qo'lqoplar, dublyonka
- Ziravor va souslar
- Tog' asali yoki choy

